

**TARIXIY ONG VA MILLIY XOTIRA TIKLASHDA ZAMONAVIY  
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI TARIXIGA NAZAR**

**Begaliyeva Dilfuza Egamqulovna,**

*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti*

[dilfuzabegaliyeva73@gmail.com](mailto:dilfuzabegaliyeva73@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ajdodlarimiz davlat boshqaruvining bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar bilan hamohangligini, davlat va huquq sohasidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari, erishilgan yutuqlar va istiqboldagi ustuvor vazifalar ilmiy tahlil qilinadi. Islohotlarning huquqiy asoslari, ularning amaliy natijalari hamda xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashuvi haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** Davlat boshqaruvi, Temur tuzuklari, Yangi O‘zbekiston, Xiva xonligi, arz-dod marosimi, sayyor arz, isloxot.

**Abstract.** This article scientifically analyzes the coherence of the state administration of our ancestors with the reforms being implemented in New Uzbekistan today, the main directions of reforms in the state and law, achievements and priority tasks for the future. The legal basis of the reforms, their practical results and harmonization with international experience are discussed.

**Keywords:** State administration, Temur regulations, New Uzbekistan, Khiva Khanate, arz-dod ceremony, sayyor arz, reform.

**Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ согласованности государственного управления наших предков с реформами, осуществляемыми сегодня в Новом Узбекистане, основных направлений реформ в государственном и правовом секторах, достижений и приоритетных задач на будущее. Рассматриваются правовые основы реформ, их практические результаты и гармонизация с международным опытом.

**Ключевые слова:** Государственное управление, Темурское законодательство, Новый Узбекистан, Хива-ханство, церемония арз-дод, сайёр арз, реформа.

**Kirish.** Sohibqiron Amir Temurning “Tuzuklar”ida adolatli jamiyat barpo etishga alohida e’tibor berilgan. Mamlakatdagi ijtimoiy va huquqiy holatlarni tartibga solishga, aholining turli qatlamlarining muammosini hal etish orqali davlat ichki tomondan mustahkamlangan. Buning natijasida xalqning davlatga ishonchi ortgan, bu esa o‘z navbatida davlatning xalqaro maydondagi o‘rnini topishga, jahondagi qudratli davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratgan. Bunday tartibli hayot boshqa davlatlar uchun ham o‘rnak bo‘lgan.

Mazkur tuzukning bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar bilan hamohangligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi mazmunida ham kuzatishimiz mumkin. Unda keltirilgan, “Qonun va adolat ustuvorligini taminlash – Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir”, “Davlat – inson uchun”, “inson – jamiyat – davlat tamoyillari asosida tashkil etilishi darkor” [2. 44, 59.] kabi mazkur mulohazalarning amaliy tasdig‘ini quyidagi misollarda ham ko‘rish mumkin.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida davlat va huquq sohasidagi islohotlar ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Mustaqillikka erishilgandan keyin mamlakatda huquqiy demokratik davlat barpo etish, inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, adolatli va samarali davlat boshqaruvini shakllantirish bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2017-yildan boshlab yangi bosqichdagi islohotlar natijasida davlat boshqaruvi tizimi soddalashtirildi, fuqarolik jamiyati institutlari rivojlantirildi, sud hokimiyati mustaqilligi ta‘minlandi.

Yangi Konstitutsiyaviy islohotlar orqali xalq vakilligining kuchaytirilishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va ochiqlik siyosatini rivojlantirish masalalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu ma‘noda davlat rahbarining “Xalq Qabulxonalari to‘g‘risidagi qonun qabul qilish vaqti keldi” [3. 70] degan tamoyillar ilgari surilgani bejiz emas. O‘zbek davlatchiligi tarixining davlat boshqaruv siyosatida hukmdor tomonidan fuqorolarning turli ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotiga oid muammoli masalalarini tinglash, ularni imkon qadar o‘z davri qonun-qoida va urf-odatlarini asosida hal qilish an‘anasi yaxshi shakllangan.

**Muhokama va natijalar.** Davlat boshqaruvida hukmdor tomonidan xalqning arzi tinglash hamisha davlat siyosatiga molik masala bo‘lib kelgan. Bugungi kunda davlatimiz rahbarining tutayotgan yo‘li ham aynan mana shu an‘analarimiz bilan bog‘liq. 2017-yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e‘lon qilinishi bunga yorqin misoldir. Davlatchilik an‘analarining jiddiy shakllaridan hisoblangan “xalqni tinglash” singari muhim tadbir va uning tarixiy ildizlarini tadqiq etish bugungi kun boshqaruv siyosatini takomillashtirishga ham ma‘lum darajada xizmat qiladi. Jumladan, ushbu an‘analarning davomi sifatida 2017-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqadigan maxsus “portal” tashkil etildi va shu yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e‘lon qilindi.

Mazkur masalada moziyga qayib, O‘zbekiston davlatchiligining ajralmas bo‘g‘ini hisoblangan Xiva xonligi misolida kuzatilsa, qo‘shni xonliklar Buxoro va Qo‘qon kabi xon tomonidan xalqning dardi tinglangan, “arzdod” deb atalgan marosim o‘tkazilgan. Xiva tarixiga oid manbalarda hukmdor nafaqat saroyda balki undan tashqari hududlarda ham fuqoralarining arzi eshitganligi alohida ta‘kidlanadi. Saroydan tashqarida o‘tkazilgan arz marosimi bevosita xonning ov safari va harbiy yurishlari chog‘ida amalga oshirilgan. Buni biz shartli ravishda “sayyor qabul” deb atadik. Lekin, mavjud manbalarda bu marosimning “murojaat etiketi”, arzni bayon etish tartibi, rasm-rusumlari haqida aniq ma‘lumotlar uchramaydi. Shunday bo‘lsada, bu jarayon boshqaruvning jiddiy va ta‘sirchan vositasi hamda ijtimoiy-siyosiy tizimning muhim

harakatlantiruvchisi (mexanizmi) sifatida davlatchilik tarixining ko‘plab jihatlarini ochib berishga imkon yaratadi.

“Arz-dod” marosimi davlat va jamiyat boshqaruvida haqiqatan juda muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lganki, avvalo oliy hukmdor hokimiyatining legitimligini\* (*biror kishining qonuniy huquqlarini yoki vakolatini tan olish*) ta‘minlash va mustahkamlash usuli sifatida deyarli barcha hukmron sulolalar tomonidan qo‘llanib kelingan. Hokimiyat uchun siyosiy raqobat kuchli bo‘lgan so‘nggi o‘rta asrlarda hukmdorlar “ma‘rifatparvar va adolatli podsho” timsolini yaratish va xalqni bunga ishontrishga alohida e‘tibor qaratgan. Hukmdor tomonidan aholi arz-dodining tinglanishi esa, adolatparvar hukmdor sifatida uning xalq oldidagi obro‘yini oshirishda muhim ahamiyat ega bo‘lgan. Bu tadbir amalga oshirilishi barobarida hukmdorlar buyrug‘i bilan maxsus “Solnomalar”da qayd ettirib borilgan.

Shu jihatdan, manbalarda xon va sultonlarning xalq arzini tinglash, adolat bilan muammolarni hal etish borasidagi sa‘y-harakatlariga katta urg‘u berilgan. Xonlik tarixiga oid bo‘lgan asarlardagi arz tinglash tadbirlar to‘g‘risida qator misollarni keltirish mumkin. Xususan, saroy tarixchilari Munis va Ogahiyning asarida Xiva Arabshohiyalaridan Oqatoyxon ibn Amnaxonning (1547-1556) “dodi adlg‘a mashg‘ul bo‘lgan”ligi ta‘kidlangan bo‘lsa [4. 82, 176], Qo‘ng‘irot sulolasi hukmdorlaridan Avaz inoq (1790-1804) ham “hamisha dorulimoratda dodi adlg‘a mashg‘ul edi. Aning suhbatida fahshu\* (*Fahsh-so‘kish.*) dashnom bo‘lmas erdi”, deb ta‘rif etilgan [5.176].

Mazkur siyosiy tadbirning joylardagi sayyor shakli katta siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Avvalo, bu tadbir xon saroyiga borish imkoniyati cheklangan yoki mavjud bo‘lmagan chekka hudud aholisi uchun katta qulayliklar yaratgan. Shuningdek, yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va mahalliy muammolarni tezkor va o‘z joyida hal etish imkonini bergan. Mamlakat osoyishtaligi va siyosiy barqarorligini ta‘minlash hamda joylardagi ma‘muriyat tomonidan yo‘l qo‘yilgan tartibbuzarliklarga chek qo‘yishda esa, joylardagi arz-dod marosimi alohida o‘rin tutgan. Manbalarda ov safari “shikorandozlig‘ marosimi” [6. 181], “shikor tamoshasi” [7. 266] kabi iboralar bilan keltirilgan. Joylarda tashkil etilgan bunday “arz marosimlari” turli masalalarning nisbatan qisqa muddatda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri hal etilishiga olib kelgan [8. 36-46].

**Xulosa.** Mavjud ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, ushbu masalani tadqiq etish orqali davlat tuzilmasining ish faoliyati, devonxona tizimi, davlat va jamiyatning o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari singari masalalarga oydinlik kiritish mumkin. Bu esa, ko‘p jihatdan, xalq, hukmdor va mansabdor shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga ham yordam beradi. Ajdodlarimizning davlat boshqaruvi borasidagi o‘rnatgan qonun-qoidalari zamonaviy O‘zbekiston sharoitida ham munosib davom

ettirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruv tizimining roli ortib borayotganligi, mamlakatimizda farovon jamiyatni barpo etish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalari va boshqa qator omillar boshqaruvga oid an‘ana, marosimlar tarixini ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktabrdagi PF-5843-sonli farmonida ko‘rsatilganidek, davlat fuqarolik xizmatiga eng munosib va qobiliyatli shaxslarni qabul qilish hamda ularning xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini qo‘llash belgilab qo‘yilgan [9. [https:// lex.uz/docs/4549998](https://lex.uz/docs/4549998)].

Bu nafaqat an‘anaviy balki, ma‘lum bir tarixiy davrlarda mavjud bo‘lgan mansablavozimlar, ularni ishlash taktikasini ko‘rib chiqish, boshqa mamlakatlar tajribalarini o‘rganish, yangilanayotgan O‘zbekistonda boshqaruvga oid tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Manbalarda keltirilgan ma‘lumotlar hozirgi kunda mavjud bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalarining tarixini uzoq o‘tmishga ega ekanligini bildiradi. Xususan, Xalq qabulxonalarining joylarda tumanlar va shaharlarda tashkil etilishi aynan buning yaqqol isbotidir. Aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqatni tashkil etish, ularning erkinliklari, huquqlari, qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga qaratilgan, Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlarni qayd etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, ularning ustidan monitoring va nazorat qilish kabi masalalar ma‘lum ma‘noda o‘zbek davlatchiligi boshqaruv tizimining an‘anaviy usullarining hozirgi kunda ham davom etayotganligini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Тему́р тузуқлар. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. Б.Аҳмедов таҳрири остида. Тошкент. Ғ. Ғулом. 1991. – Б. 58.
2. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. О‘zbekiston. Тошкент. 2023. – ББ. - 44, 59.
3. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. О‘zbekiston. Тошкент. 2023. – Б. 70.
4. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс–ул-икбол. Тошкент. Янги аср. 2010. – Б. 82, 176.
5. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс–ул-икбол. Тошкент. Янги аср. 2010. – Б. 176.
6. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи Н.Жабборов. – Тошкент. Ўзбекистон. NMIY. 2009. – Б. 181.
7. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс–ул-икбол. Тошкент. Янги аср. 2010. – Б. 266.
8. Ov marosimiga doir qo‘shimcha fikrlar uchun qarang. Д.Бегалиева Хива хонлари саройида шахзодалар тарбиясининг айрим анъанавий жиҳатлари // О‘zbekiston tarixi. - 2013. № 3. – Б. 36-46.
9. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “О‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 3 oktabrdagi PF-5843-sonli farmoni, [https:// lex.uz/docs/4549998](https://lex.uz/docs/4549998) (03.10.2019 yil).